


XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI

2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 38,6 mingtani tashkil etadi, shundan 32,3 mingtasi yoki 82,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 109,6 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	38 600	32 266	31 982
2025	35 717	29 479	29 193
2024	39 049	32 853	32 644
2023	42 309	36 368	36 143
2022	47 415	41 322	41 074

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Farg'ona shahrida – 18,1 foiz, Qo'qon shahrida – 10,1 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,3 foiz va Oltiariq tumanida – 5,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Quvasoy shahrida – 87,2 foiz va 86,5 foiz, Marg'ilon shahrida – 87,3 va 86,6 foiz, Oltiariq tumanida – 86,9 foiz va 86,5 foiz hamda Qo'qon shahrida – 86,6 foiz va 85,5 foiz to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Farg'ona viloyati	38 600	32 266	31 982
Farg'ona shahar	6 976	5 886	5 821
Qo'qon shahar	3 883	3 364	3 321
Marg'ilon shahar	2 802	2 445	2 427
Oltiariq tumani	2 268	1 970	1 961
Uchko'prik tumani	1 932	1 658	1 625
Farg'ona tumani	1 806	1 461	1 444
Quva tumani	1 789	1 442	1 435
O'zbekiston tumani	1 716	1 404	1 399
Rishton tumani	1 644	1 305	1 297
Dang'ara tumani	1 573	1 313	1 303
Toshloq tumani	1 527	1 294	1 288
Quvasoy shahar	1 493	1 302	1 291
Buvayda tumani	1 465	1 199	1 194
Bag'dod tumani	1 440	1 118	1 108
Beshariq tumani	1 413	1 194	1 188
Yozyovon tumani	1 400	1 143	1 130
Qo'shtepa tumani	1 358	1 051	1 045
So'x tumani	1 154	975	966
Furqat tumani	961	742	739

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-aprel holatiga 33,5 foizni (40,1 foiz va 40,3 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,2% (19,3% va 19,3%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6% (7,2% va 7,2%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50,0% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jami	38 600	32 266	31 982
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 533	1 489	31982
Sanoat	6 259	6 243	1 480
Qurilish	2 329	2 307	6 175
Savdo	12 935	12 935	2 277
Tashish va saqlash	1 500	1 494	12 878
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 163	2 156	1 483
Axborot va aloqa	723	714	2 152
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 595	1 193	710
Boshqa turlar	9 563	3 735	1 183

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 32,2 mingta faol tijorat korxonalaridan 23,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (% da)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	23 187	71,5
Xususiy korxonalar	4 907	15,5
Oilaviy korxonalar	3 783	11,8
Aksiyadorlik jamiyati	40	0,1
Boshqalar	355	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shni munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 629 ta korxonalardan 231 tasi qo'shma korxonalar va 398 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026- yilning 1- aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 145 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 224 tadan 281 taga (o'sish 57 taga), savdo sohasida 113 tadan 140 taga (o'sish 27 taga), va qurilish sohasida 40 tadan 53 taga (o'sish 13 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	629	231	398
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	10	11
Sanoat	275	128	147
Qurilish	55	21	34
Savdo	145	39	106
Tashish va saqlash	13	6	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	24	8	16
Axborot va aloqa	41	1	40
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	4	8
Boshqa turlar	43	12	31



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 230 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,6 foizini tashkil etdi. Farg'ona viloyatining iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (17,8%), Turkiya (11,1%), Qirg'iz Respublikasi (4,6%) va Janubiy Koreya (5,2%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	629	229	400
Xitoy	230	87	143
Rossiya	112	45	67
Turkiya	70	19	51
Qirg'iziston	29	15	14
Janubiy Koreya	33	12	21
Tojikiston	24	10	14
Ozarbayjon	18	1	17
Qozog'iston	10	5	5
Yaponiya	11	2	9
Belorussiya	9	4	5
Eron	9	4	5
Hindiston	7	2	5
Ukraina	5	2	3
Afg'oniston	6	1	5
Germaniya	6	2	4
Amerika Qo'shma Shtatlari	5	1	4
BAA	3	1	2
Turkmaniston	2	-	2
Boshqalar	40	16	24



IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- martdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,

Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy

Pochta: farstat@farstat.uz

Tel: 73 249-00-08 (4060)
